

“TASDIQLAYMAN”
“NKMK”AJ

Bosh direktorining xodimlar va
ma'muriy masalalar bo'yicha
o'rinbosari

 Q.X. Taparov

**2024 yil davomida “NKMK” AJ markaziy apparati va tarkibiy bolinmalarida
aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari va ularni tartibga solish
bo'yicha qabul qilingan choralar to'g'risida
MA'LUMOT**

O'zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonuni va “NKMK” AJ Kuzatuv Kengashining 2024 yil 7 iyundagi 4-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo'linmalarida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish to'g'risida”gi Nizomga asosan Komplaens xizmatini mas'ul xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini o'rganish, tahlil qilish hamda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini oldini olishga qaratilgan choralarni belgilash borasida 2024 yil davomida tahlil va o'rganishlar olib borildi.

Natijada, **jami 148 ta** manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlandi, shundan, **46 ta** mavjud va **102 ta** ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlandi. Aniqlangan barcha manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha Komplaens xizmatining ma'sul xodimlari tomonidan tegishli **Odob-axloq komissiyalariga** belgilangan tartib va muddatlarda ko'rib chiqish uchun taklif hamda taqdimnomalar kiritildi.

2024 yil 31 dekabr holatida, Odob-axloq komissiyalari tomonidan barcha 148 ta manfaatlar to'qnashuvi holatlari ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar chiqarildi va chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shundan, 17 ta mavjud hamda 11 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari to'liq bartaraf etildi, qolganlarining ijrosi nazoratga olindi.

Shu bilan birga, 10 ta tadbirkorlik sub'ekti ta'sischisi bo'lgan rahbar tomonidan tadbirkorlik sub'ekti faoliyati to'liq tugatilishi ta'minlandi.

Komplaens xizmatini ma'sul xodimlari kelgusida yuqorida aniqlangan barcha holatlari yuzasidan monitoring va o'rganishlarni davom ettirib, tegishli choralarni ko'rib borilishi belgilab olindi.

Komplayens xizmati boshlig'i

 R.F. Avezov